# SOG’LOM AYOLLAR



Cho’liguliston mahalla fuqarolar yig’inida "Ayol-mehr, sadoqat, taraqqiyot timsoli" shiori ostida madaniy-ma'rifiy tadbir o’tkazildi.

Tadbir erta tongda “Salomatlik uchun 10 ming qadam” aktsiyasi doirasida marafon bilan boshlandi. 22-umumta'lim maktabida umum rivojlantiruvchi mashqlar bajarildi. Tadbirning badiiy qismi mahalla binosi olidida davom etdi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining jajji bolajonlari tomonidan kuy va qo’shiqlar ijro etildi.

Tadbir davomida xotin qizlarga oilada "Ota”, "Farzand-omonat" roliklari namoyish qilindi. Tuman oila va xotin qizlar bo’limi boshlig’i Saidaxon Usmonova oilada ayolning o’rni, uning vazifalari, ayollik burchlari haqida so’zlab berdi.

YoZYoVON TUMANI HOKIMLIGI AXBOROT XIZMATI

**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**
Facebook,
2023-06-27 14:19:20